



ALISHER NAVOIYNING MA'NAVIY - MA'RIFIY MEROSI

Botirov Diyorbek Dilshod o'g'li

*TDYU qoshidagi M.S. Vosiqova nomidagi yuridik akademik litsey 1-bosqich
4-guruh talabasi.*

Annotatsiya: *O'zbek xalqining ulug' mutafakkiri, ma'rifatparvari va buyuk shoiri Alisher Navoiy yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida e'tibor bergan. U bolalarni ilm-hunarni, mehnatni sevishga undab, o'rganilgan ilm va hunarni xalq, vatan yo'lida sarf qilish zarurligini uqtirgan.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, shoir, adabiyot, «Zubdat ul-tavorix», yoshlar, «Tarixi anbiyo va hukamo», «Tarixi muluki Ajam».*

Аннотация: *Великий мыслитель, просветитель и великий поэт узбекского народа Алишер Навои уделял особое внимание воспитанию молодежи. Он прививал детям любовь к науке, ремеслам и труду, учил их необходимости использовать полученные знания и умения на благо народа и Родины.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, поэт, литература, «Зубдат ул-таворих», молодежь, «История пророков и правителей», «История нового Аджам».*

Abstract: *The great thinker, enlightener and great poet of the Uzbek people, Alisher Navoi, paid special attention to the upbringing of young people. He encouraged children to love science and labor, and taught them the need to use the knowledge and skills they had learned for the people and the homeland.*

Keywords: *Alisher Navoi, poet, literature, "Zubdat ul-tavorikh", youth, "History of the Prophets and Rulers", "History of the Land of the Ajam".*

Alisher Navoiy – o'zbek adabiyotini jahoniy mavqega ko'tara olgan barmoq bilan sanarli ulug' shoirlarimizdan biri. Bunday ijodkorlarning nomi,



haqli ravishda, ular mansub bo'lgan xalq nomi bilan chambarchas bog'lanib qoladi. Shu bois, Alisher Navoiyning qutlug' nomi tilga olinganda o'zbek xalqi, shu xalq nomi eslanganda esa ulug' shoirning nurli qiyofasi ko'z oldimizda gavdalanadi.

Buni Prezidentimizning 2020 yil 23 sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida o'zbek tilida so'zlagan nutqi misolida ham ko'rish mumkin. Dunyo jamoatchiligining e'tiborini tortgan bu ma'ruzaga nisbatan Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an o'z munosabatini bildirarkan, O'zbekiston Prezidentining Navoiy tilida gapirganini iftixor bilan e'tirof etgan edi.

Alisher Navoiy ijodi nafaqat muallif adabiy niyatining ulug'vorligi bilan, balki ana shu buyuklikka nihoyatda munosib yaratilgan ko'rkam libos yanglig' badiiy kashfiyotlarning mo'jizakorligi bilan ham hayratlanarlidir. Ulug' shoir nazmu nasrining bayt, bandu jumlaridagi nozik ishoralarni teran mushohadakorlik asosida anglash kitobxon ruhi oniyda seskanishiga, tuyg'ulari junbishga kelishiga omil bo'ladi.

Bunday saodatni bugungi kitobxonga taqdim etish uchun Alisher Navoiy asarlari sarchashmalariga tayanilgan yangicha talqinlarga ehtiyoj oshib bormoqda. Shu sababli keyingi yillarda shoir ijodini ilmiy tadqiq etishga qaratilgan e'tibor tizimli ravishda oshirilib borilgani kuzatiladi. Alisher Navoiyning badiiy mahorati, o'ziga xos badiiy kashfiyotlari sirini teran o'rganish navoiyshunoslikni qiziqtirib kelayotgan eng muhim masalalardan biridir. O'tmishda badiiy ijod va tarixnavislikning uyg'un holatda tarixiy asarlarda namoyon bo'lgani I.Pardayeva dissertatsiyasida Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo», «Tarixi muluki Ajam» asarlari misolida o'rganilgan.

Tadqiqotchi bu ikki asar «Zubdat ul-tavorix»ning tarkibiy qismlari ekanini asoslashga harakat qiladi. N.Sharipova esa ulug' shoirning poetik mahorati masalasini «Xamsa»ning dastlabki dostoni bo'lmish «Hayrat ul-abror» misolida tadqiq etadi. Dissertant dostonning o'ziga xos kompozitsiyasi, obrazlar olamiga oid muhim umumlashma-xulosalarni tahlillar asosida dalillashga harakat qilgan. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy asarlarini qiyosiy sathda



o'rganish ularda qo'yilgan masala mohiyatini imkon qadar chuqur anglash imkonini beradi. Ayni jihatiga ko'ra D.Nazarovning «Subhat ul-abror» va «Hayrat ul-abror» dostonlarining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan dissertatsiyasi ham e'tiborga loyiqdir. Izlanuvchi «abror» so'zining Qur'oni karimdagi talqinlariga e'tibor qaratib, muqaddas kitobda bu so'z jannat ahlining sifatlaridan biri, valiysifat zotlarning ta'rifi, basirat ko'zi ochiq, qalbi imon nuri bilan munavvar zotlarga nisbatan turli shakllarda yigirma marta qo'llanganini ma'lum qiladi. Abrorlar valiylar toifasining biri bo'lib, o'z nafs tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lib qolmay, dunyoning obodonligi va el-yurt farovonligi uchun ham sa'y-harakat ko'rsatishini alohida ta'kidlab o'tadi. Dissertant nazarida abrorlar dinni deb dunyodan, dunyoni deb dindan voz kechmaydilar, balki dunyo ashyolarini taqvoni mustahkamlash uchun vosita o'laroq qo'llay oladilar.

Alisher Navoiy devonlarining hali o'zi tartib berishga kirishmasdan oldin muxlislari tarafidan kitobat qilinishi uning beqiyos iste'dodiga berilgan muhim bahodir. Tadqiqotchi R.Jabborov dissertatsiyasida «Oqquyunli muxlislar devoni»ning Alisher Navoiy lirikasi va davr madaniy muhitidagi o'rni masalasida so'z yuritiladi. Bu devon ulug' shoir ijodiy evolyutsiyasini baholashda qimmatli manba bo'lishi dissertatsiyada o'z ifodasini topgan. Vatanimizning mustaqilligini mustahkamlashning eng muhim vazifasi har bir sohada o'z mutaxassislarimizni, olimlarimizni yetishtirishdir. Shunday ekan, ilm-fanning qaysi yo'nalishi bo'lishidan qat'iy nazar, o'zligimizga qaytishimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklashimiz, olim bobokalonlarimiz qoldirib ketgan qo'lyozmalarni o'qib, o'rganib, ulardan hayotning bugungi talablariga javob bera oladigan bilim va ko'nikmalar hosil qilishimiz lozim.

O'zbek xalqining ulug' mutafakkiri, ma'rifatparvari va buyuk shoiri Alisher Navoiy yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida e'tibor berdi. U bolalarni ilm-hunarni, mehnatni sevishga undab, o'rganilgan ilm va hunarni xalq, vatan yo'lida sarf qilish zarurligini uqtirdi.



Alisher Navoiy ilm, ma'rifat haqida ajoyib fikrlarni olg'a surdi. U aql, ilm insonning eng go'zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir, deb hisobladi. Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o'qish-o'rganish kerak: «Yoshligingda yig'il bilimni, qarigach sarf qilg'il ani», degan shoirning o'zi ham juda yoshligidan ta'lim oladi, o'qishga beriladi. U yoshligidanoq ko'p she'rlarni yod bilgan. Jumladan, Fariddin Attorning «Mantiq ut-tayr» («Qush nutqi») asarini bolalik chog'laridayoq qayta-qayta o'qib, yod olgan. Alisher Navoiy keyinchalik maktab va maorif masalalariga katta ahamiyat berdi. U mehnatkash xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurish to'g'risida g'amxo'rlik qildi. Alisher Navoiy Astrobodda surgunda yurganida podshoh Husayn Boyqaroga yozgan xatida o'g'il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qilgani, shaxsan o'zi madrasalar qurishda tashabbus ko'rsatgani buning yaqqol dalilidir.

Navoiyning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. U o'zining «Ixlosiya» madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratib, buning uchun lozim bo'lgan mablag' ajratadi. Navoiy dars beruvchini quyoshga o'xshatadi va bu quyosh o'z atrofidagi yulduzlarga nur sochadi, ya'ni hali ilmdan bexabar bo'lgan toliblarga ilm nurini sochadi, ma'rifat beradi, deydi.

Buyuk so'z san'atkori va mutafakkiri o'zining bir qancha asarlarida bolalar tarbiyasiga oid fikrlarini aytish bilangina kifoyalanib qolmasdan, balki «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi dostonlarining ayrim boblarini shu masalaga bag'ishlaydi. «Hayrat ul-abror» (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) falsafiy-ta'limiy dostonidir. Navoiy bu asarida o'zining falsafiy, ijtimoiy-siyosiy hamda kishilarga ta'lim va o'git berish masalalariga katta e'tibor beradi. Dostonda zolim hukmdorlarni qoralab, ikkiyuzlamachi, riyokor ruhoniylarning sir-asrorlarini keskin fosh etadi. Xususan, shoir saxiylik, odob va kamtarinlik, ota-onaga hurmat, rostgo'ylik va to'g'rilik, ilmning foydasi va kambag'al o'quvchilarning bu yo'lda chekkan azoblari haqida batafsil to'xtalib o'tadi.



«Hayrat ul-abror» asarining bir necha boblari odob-axloq va ta'lim-tarbiya masalasiga bag'ishlangan. Navoiy bu dostonning oltinchi maqolotida odob va kamtarlikni ulug'lab, ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarini bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Shoir dostonning bu maqolotida bola tarbiyasi, uni o'stirish, o'qitish va balog'atga yetkazish hamda bu borada ota-onalarning vazifalari haqida batafsil fikr yuritadi. Shoir yoshlarni ota-onaning xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli bo'lishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb ta'riflaydi:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a...
Tun-kununga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin quyosh
Navoiy ilmdan amalda foydalanish zarurligini ta'kidlaydi:
Ilm, Navoiy, senga maqsud bil,
Endiki ilm o'ldi amal aylagil.

Navoiy yomon odat va xulq-atvorlarni shafqatsiz qoralashi, oliyjanob insoniy fazilatlarni qadrlashi, bolalarni o'qish, o'rganish va yuksak odobli, a'lo xulqli bo'lishga chaqirishi katta ahamiyatga ega bo'lib, bolalar adabiyotining shakllanishida juda muhimdir. Uning bir qator axloqiy-ta'limiy qarashlari hozirgi kunda ham o'z qadr-qimmatini saqlab kelmoqda.

«Albatta olimning obidga nisbatan fazilati to'lin oyning yulduzlarga ko'ra fazliga o'xshaydi». Ilm talabidagi kishi bilan ibodatdagi obid oralaridagi farq xuddi to'lin oy ila yulduzlar o'rtasidagi farqqa o'xshaydi. Bu o'xshatishni anglash uchun juda ham chuqur bilim shart emas, chunki Nabiy sollallohu alayhi va sallam ummatga o'z o'gitlarini soddagina qilib tushuntirib beradilar. Bizga ularni tushunish uchun faqatgina eshitish yoki ozgina mutolaa qilish kifoya.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqlanib so'zlamaslikning iloji



yo‘q. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta‘lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek: «Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi». Yana bir narsani ta‘kidlash lozim bugungi yoshlar qanchalik bilimli, tarbiyali, dunyoqarashi keng, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega vatanparvar bo‘lib kamolga yetsa, yangi O‘zbekistonni qurishga shu qadar kamarbasta bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar.

1.SH. M. Mirziyoyev 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish».

2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Olam va odam, Din va ilm“ 2019.

3. Alisher Navoiy Mahbubul qulb.

4. O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim vazirligining ilmiy metodik jurnali Til va Adabiyot Talimi.

Internet ma‘lumotlari:

<http://www.ziynet.uz>

<https://lex.uz>

<http://library.ziynet.uz>

<http://library.navoiy-uni.uz>